

30-Sentabr, 2024-Yil

ХОТИН-ҚИЗЛАР (АЁЛЛАР) ФУТБОЛИДАГИ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР

Каримов Фазлиддин Жамолиддин ўғли

Гулистон давлат университети докторанти.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13763135>

Annotatsiya. O'zbekiston futbolchi qizlari ishtirokidagi turli darajadagi musobaqalar tahlili shunga guvohlik beradiki, ularning ko'pchiligida harakat faolligi darajasi va o'yin usullarini bajarilish samaradorligi zamonaviy o'yin talablariga javob bera olmaydi. Mazkur haqiqat mashg'ulot jarayonida maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga oz vaqt ajratilishi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: ayollar futboli, tendensiya, jismoniy tayyorgarlik, nazorat, yuqori malakali futbolchi qizlar.

MODERN TRENDS IN WOMEN'S (WOMEN'S) FOOTBALL

Abstract. The analysis of competitions of different levels with the participation of female football players of Uzbekistan testifies that the level of activity of movement and the efficiency of execution of game methods in most of them cannot meet the requirements of the modern game. This fact is explained by the fact that little time is allocated to increase the level of special physical fitness during training.

Key words: women's football, trend, physical training, control, high-skilled soccer girls.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЖЕНСКОГО (ЖЕНСКОГО) ФУТБОЛА

Аннотация. Анализ матчей разного уровня с участием футболисток Узбекистана свидетельствует, что у большинства из них уровень двигательной активности и эффективность выполнения игровых приемов не отвечает требованиям современной игры. Во многом этот факт объясняется тем обстоятельством, что в тренировочном процессе мало времени уделяется повышению уровня их специальной физической подготовки.

Ключевые слова: женский футбол, тенденция, физическая подготовка, контроль, высококвалифицированные футболистки.

So'nggi yillarda mamlakatimizda muhtaram jismoniy tarbiya va sportga, xususan futbolga bo'lgan e'tiborning kuchayib borayotganligi, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi [1] Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5887-sonli Farmoni [2], 2023-yil 7-apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-115-sonli

30-Sentabr, 2024-Yil

Qarorlarida [3] o'z aksini topgan. Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlar futbolini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayollar o'rtasida muntazam ravishda 12 ta jamoa ishtirok etayotgan Oliy liga chempionatlari o'tkazilib kelinmoqda.

2023-yilda Avstraliya va Yangi Zelandiyada o'tkazilgan dunyoning 5 ta qit'asidan 32 ta tema jamoalar ishtirok etgan jahon chempionati ham ayollar futboliga qiziqish ortib borayotganligini ko'rsatmoqda. FIFA prezidenti Djanni Infantino (2023) ta'kidlaganidek, "bu yil ayollar o'rtasida o'tkazilgan futbol bo'yicha jahon chempionatining hayratlanarli darajadagi muvaffaqiyati, aynan hozir ushbu impulsni saqlab qolish va ayollar futbolini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun jiddiy qadamlar qo'yish vaqti ekanligini ko'rsatadi".

Evropa qit'asi mamlakatlari ham ayollar futboliga katta qiziqish bilan qaramoqdalar. UEFA hisobotiga [4] ko'ra, Angliyada ayollar futboli tarixida eng katta turnir – Evro-2022 musobaqalari o'tkazildi. Mazkur turnir 195 ta mamlakatda namoyish etildi, o'yinlarni 178 milliondan ortiq tomoshabinlar kuzatib bordilar. Ushbu turnir o'yinlarni qabul qilgan shaharlarga 65 million dollar foyda keltirdi. Evro-2022 musobaqalari ayollar futbolidagi ikkita qiziqarli xususiyatini belgiladi – ayollar futbolida "Starling Bank", Euronics (maishiy va oshxona texnikasi), "Pandora" zargarlik brendi, Grifols (Ispaniya farmatsevtika kontserni) va Lego kabi homiylarning boshqa profili mavjud ekan (erkaklar o'rtasida o'tadigan musobaqalarda "Qatar Enerji", "QNB" va "Ooredoo" kompaniyalari, "Vizit Las Vegas" sayyohlik markazi va "Fine Hygienik Holding" firmasi). Ayollar futboliga innovatsiyalarni joriy etish oson, eskirgan formatlar va murakkab tijorat tuzilmalari bilan cheklanib qolmagan. Ikkinchi farqi – tomoshabinlarning taxminan 43% ayollar, 21% esa 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar. Shuningdek, bunga beletlar bahosini pastligini ham kiritish mumkin, shu bois ayollar futboli sarmoya kiritish nuqtai nazaridan erkaklar futboliga nisbatan qiziqarli va istiqbollidir.

So'nggi yillarda ayollar futboliga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortib borayotganligini 2022/23 yillarda o'tkazilgan ayollar Chempionlar Ligasi final o'yinlari ham tasdiqlaydi va uning asosiy tendentsiyalari quyidagilardan iborat:

- samaradorlik (natijaviylik) – 211 ta gol yoki bir o'yinda o'rtacha 3,5 ta gol urilgan.

Guruh bosqichida o'yinlarida 130 ta goldan 23% i beshta yoki undan kam to'p uzatish qo'llanilgan kombinatsiyalar natijasida urilgan;

- past to'siqqa (blok) qarshi yuqori darajadagi pressing. Past va o'rta blokdan foydalangan jamoalar yuqori pressing qo'llagan raqib bilan o'yinlarda sezilarli muammolarga duch keldilar;

- himoyadan tezda hujumga o'tish;

30-Sentabr, 2024-Yil

- yuqori tezlik, 10 dan ortiq futbolchi qizlar 30 km/soatdan yuqori tezlikka ega (Karoline Grem-Xansen - 32,4km/soat; Delfin Kaskarino – 32,2km/soat).

Muntazam ravishda 40-50 mingdan ortiq muxlislar tashrif buyuradigan Angliya Kubogi o'yinlari shuningdek, 48 ming tomoshabinni to'plagan "Atletik Bilbao" – "Atletiko Madrid" ayollar jamoalari o'rtasidagi Ispaniya Kubogi chorak finali o'yinlari ayollar futboliga nisbatan o'sib borayotgan qiziqishning yaqqol namunasi bo'la oladi. "Atletiko Madrid" va "Barselona" jamoalari o'yiniga 60 000 muxlis tashrif buyurgan, bu esa Evropa klubi o'rtasida rekord hisoblanadi. Angliyaning "Women's Super League"da ("Ayollar Super Ligasi") ikkita uchrashuvda (derbi) jami 60 000 dan ortiq tomoshabinlarni to'play oldi: "Liverpool" – "Everton" mersisayd derbi uchrashuvini 23 500 nafar tomoshabin, "Arsenal" v Tottenham" uyida esa 38 000 nafardan ortiq futbol ishqibozlari bevosita tomosha qilganlar [5].

Osiyo futbol konfederatsiyasi (OFK)da ham ayollar futboliga qiziqish ortib bormoqda. 2022 yil Xindistonda 20- OFK Kubogi musobaqalari o'tkazildi va unda birinchi marotaba 12 ta ayollar milliy terma jamoalari ishtirok etdi. Bundan tashqari, OFK O'zbekistonning "Sevinch" (Qarshi) jamoasi ham ishtirok etayotgan ayollar jamoalari orasida chempionlar Ligasi musobaqalarini o'tkazib kelmoqda.

Ayollar orasida o'tkazilayotgan jahon chempionatlarida ayollar futbolining asosiy rivojlanish tendentsiyalarini kuzatish mumkin. Ayollar futboli o'yin harakatlarining ko'rsatkichlari, yakkama-yakka kurashlar soni, harakatlarnishlar hajmi bo'yicha erkaklar futboliga tobora yaqinlashib kelmoqda. T.V,Zaytseva (2019), A.I.Igline (2017), Ya.Lin (2023) D.S.Makarov (2015) kabi mutaxassislarning fikricha, ayollar futbolida ko'pgina o'yin lavhalarida jiddiy va kuchli kurashlar bilan kechadi, shuning uchun futbolchi qizlar yuqori darajadagi maxsus jismoniy sifatlarga ega bo'lishlari zarur.

N.N.Kolesnikova (2022), Lyu Tsi (2019), V.V.Suvorovlarning ta'kidlashicha, futbolchi qiz to'pni raqibning jiddiy qarshiligi ostida qabul qiladigan o'yin lavhalarida soni ham ortib bormoqda, shuning uchun qaror qabul qilishga ketadigan vaqt ham qisqarmoqda. Har bir o'yin lavhalarida jamoalarning guruh bo'lib harakatlarni amalga oshirish samaradorligi ham oshmoqda.

O'yinchilarning hujumning boshlang'ich fazalaridagi harakatlari ancha murakkablashib bormoqda, chunki raqib maydonining yarimida aynan shu bosqichda to'pni tortib olishga urinishlar soni ham oshgan. Texnika tezkorligi o'yin vazifalarini, ayniqsa hujumni raqib jarima maydonida yakunlash vazifalarini hal etishda asosiy omil bo'lim qolmoqda.

Dunyoda ayollar futbolining ijobiy rivojlanish dinamikasi bilan bir qatorda ko'pchilik mamlakatlarda umumiy muammolar ham mavjud. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, "Erkaklar

30-Sentabr, 2024-Yil

futboli uchun xos bo'lgan muammolar ayollar futboliga ham tegishlidir. Asosi ommaviylik va futbol o'yini hamda mashg'ulotlariga qiziquvchilar sonini oshirishga qaratilgan mustahkam poydevordan tashkil topgan to'g'ri piramida qurish zarur".

N.N. Kolesnikovaning (2022) fikriga muvofiq, "Ayol jinsi uchun futbol bilan shug'ullanishlaridagi cheklanishlar federatsiyalar va klublarning ko'pgina sohalarida moddiy-texnik asos va infratuzilmalarning pastli, jihozlar, anjomlar, trenejyorlar, ayollar futbol bo'yicha malakali murabbiylar, kadrlar bilan etarli darajada ta'minlanmaganlik, aholining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga etarlicha jalb qilinmaganligi bilan uzviy bog'liqdir".

Lin Yatsining (2023) hisoblashicha, Xitoy ayollar professional futbolida yuqori sport natijalariga erishishi uchun juda katta mashg'ulot va musobaqa amaliyoti talab qilinadi, tayyorgarlik jarayonini esa katta tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali, mahoratli va vakolatli mutaxassislar boshqarishi kerak.

O'zbekistonda ayollar futbolining rivojlanishidagi umumiy tendentsiyalar O.A. Farafontova (2020) tomonidan quyidagicha bayon etilgan:

- "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun va "2030 yilgacha futbolni rivojlantirish kontseptsiyalari"ni amalga oshirish;
- xududiy ayollar futbol federatsiyalariga ilmiy, uslubiy, moliyaviy, moddiy-texnik, axborot va tahliliy yordamlarni ko'rsatish;
- mamlakatda va alohida xududlarda ayollar futbolining ijtimoiy darajasini oshirish; – xududlarda ayollar futbolini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ayollar futbol sohasida mutaxassislar malakasini oshirishga qaratilgan kadrlar siyosatini amalga oshirish;
- ayollar futbolini targ'ib qilish, uning ommaviyligini oshirish;
- boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim tizimida ayollar futbolini rivojlantirish, ayollar futboliga katta yoshli aholi qatlamlarini jalb qilish;
- ayollar futbol klublarining zahira imkoniyatlarini mustahkamlash.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ 394-sonli Qonuni. Toshkent.2015 y

30-Sentabr, 2024-Yil

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5887-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 7 apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-115-sonli Qarori.
4. UEFA. Technical Report 2023. Pages 64.
5. UEFA. Champions League 2022/2023. Technical Report. Pages 42.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH